





**NAVOIY VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI  
2023- YIL YANVAR-DEKABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3 094 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 648 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 20,9 % ni) Navoiy shahriga, 487 tasi (15,7 %) Karmana tumaniga, 336 tasi (10,9 %) Xatirchi tumaniga, 320 tasi (10,3 %) Qiziltepa tumaniga va 264 tasi (8,5 %) Navbahor tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Jami faoliyat yuritayotgan



### Jami yangi tashkil etilgan



### Karmana t.




### Navoiy sh.



### Xatirchi t.



### Navbahor t.



### Uchquduq t.



### Nurota t.



### G'ozg'on sh.



### Zarafshon sh.



### Qiziltepa t.



### Konimex t.



### Tomdi t.



Faoliyat yuritayotgan


yangi tashkil etilgan

## Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 101 594,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,7 % ni tashkil etdi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (543 602,9 ming so‘m), Karmana tumani (68 731,4 ming so‘m), Konimex tumani (19 564,4 ming so‘m), G‘ozg‘on shahrida ( 14 521,0 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.



## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 82 683,1 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,4 % ni tashkil etdi.



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**
- Ishlab chiqarish sanoati**
- Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Navoiy shahri (84,9 %), Karmana tumani (9,3 %), Xatirchi tumani (1,5 %), Qiziltepa tumani (1,1 %) hamda Navbahor (1,0 %) tumani hissasiga tog'ri keldi.



Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Zarafshon shahrida (109,3 %), Nurota tumanida (108,2 %), Tomdi tumanida (108,1 %) hamda Qiziltepa (108,0 %) tumanlarida kuzatildi.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 037,8 mlrd so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 11,8 % ga to‘g‘ri keldi.




## Ishlab chiqaradigan sanoat

**Ishlab chiqaradigan sanoat** – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan – bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoiy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 82 683,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,4 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,7 % (10,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 83,1 % (82,4 %) va quyi texnologiyalisi – 7,0 % (6,9 %)ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

2023- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 7 723,0 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 118,3 % ga o'sgan), 3 087,5 tonna xlор (141,7 %), 2 194,6 ming dona mashinada yoki qo'lда to'qilgan trikotaj futbolkalar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar (133,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna.	83,0	93,5	10,5
Argon, ming m <sup>3</sup> .	140,2	383,0	242,8
Xlor, tonna.	2 179,0	3 087,5	908,5
Yogurt , tonna.	15,5	18,0	2,5
Kislород , ming m <sup>3</sup> .	165,2	225,4	60,2
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar , t.	6 543,0	7 723,0	1 180,0
Natriy sianidlari va siahidoksidlari, ming t.	49,3	50,4	1,1
Vodorod xlорid (xlорid kislota), ming t.	41,4	48,7	7,3
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming t.	61,9	57,1	- 4,8
Portlandsement, ming t.	3 015,0	2 831,0	- 184,0
Superfosfatlar, ming t P2O5.	2,3	1,9	- 0,4

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


## Argon ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

**Argon** – rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lalanadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlataladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.

Viloyatimizda 2023- yil yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 383,0 ming m<sup>3</sup> argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 m. ga ko'paydi.




o'sish sur'ati, % da\*



## Vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

**Vodorod xlorid** – xlorning eng muhim birikmalaridan biri bo'lib o'tkir hidli rangsiz gaz. U bilan nafas olingenida nafas yo'llarini yallig'lantiradi va bo'g'adi.

Viloyatimizda 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 48,7 ming tonna vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,6 % ni tashkil etgan.



o'sish sur'ati, % da\*




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Azot ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

**Azot** – rangsiz, hidsiz gaz bo‘lib havoda erkin holda uchraydi va sanoatda suyultirilgan havoni parchalab olinadi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 124,2 ming m<sup>3</sup> azot ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 23,4 % ni tashkil etdi.



## Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

**Plastmassa quvurlar** – asosan, suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo'llanadi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 7 723,0 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 18,3 % ga ko‘paygan.




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

## Metallurgiya sanoati

**Metallurgiya sanoati** – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 75,8 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 62 679,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish** – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 88,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 570,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2 455,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,3 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 102,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6 040,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to‘qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to‘qimachilik gazlamalarini va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to‘qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 7,2 % ga ko‘payib, ishlab chiqarish hajmi 1 888,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Kiyim ishlab chiqarish

**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to‘qimachilik gazlamalari, to‘qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo‘yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 7,3 % ga ko‘payib va ishlab chiqarish hajmi 1 218,9 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 807,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,7 % ini) tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 92,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 94,4 % ni tashkil etdi hamda elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 3,3 m. ga ko'paygan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	11 504,6	10 669,7	-834,9
Issiqlik energiyasi, ming. gkal	4 739,8	4 542,3	-197,5
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	554,7	2 202,2	1 647,5

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,1 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % iga) to'g'ri keldi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 95,8 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 3,7 % ga oshdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	69 824,0	63 761,3	-6 062,7
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	139 752,5	148 123,4	8 370,9
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	27 519,7	53 887,5	26 367,8

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 3 812,4 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,5 %, uning jami sanoatdagi ulushi 3,8 % ga to'g'ri keldi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 2 154,0 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 10,0 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Karmana tumani (117,2 %), Xatirchi tumani (110,4 %) hamda Uchquduq (110,6 %) tumani korxonalarini tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari



### Nooziq-ovqat mahsulotlar




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 56,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 43,5 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiyligi hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 55,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 44,5 % ni tashkil etdi.

\* 2023- yil hisoblash metodikasi bo'yicha

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida



**Iste'mol tovarlari** – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'limgan boshqa maqsadlarda ishlataladigan sanoat mahsulotlari.

Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 18,6 %, shuningdek, Navoiy shahri 16,9 %, Xatirchi tumani 16,5 %, Qiziltepa tumani 15,5 % ekanligi kuzatildi.




mlrd. so'mda

o'sish sur'ati, % da




*yanvar-dekabr o'sish sur'ati, % da*




## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Karmana tumani - 5 173,4 ming so‘mni, G‘ozg‘on shahrida - 4 739,1 ming so‘mni, Navoiy shahrida - 4 052,3 ming so‘mni, Qiziltepa tumani - 3 685,2 ming so‘mni, Navbahor tumanida - 3 440,0 ming so‘mni, Nurota tumanida - 3 203,6 ming so‘mni tashkil etdi.





Viloyatda aholi jon boshiga iste’mol  
tovarlar ishlab chiqarishi hajmi

**3,6** mln. so‘m




## Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Xatirchi tumaniga to'g'ri kelib, 19,8 %, shuningdek, Navbahor tumani 17,2 % ni, Nurota tumani 14,1 % ni, Karmana tumani 12,1 % ni tashkil etdi.



## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 23,6 % ni, Navoiy shahriga 22,8 % va Qiziltepa tumaniga 19,7 % ekanligi kuzatildi.



**TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI QISMLAR VA MATERIALLAR  
ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING AMALGA OSHIRILISHI**  
(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlari erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilishida mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 291 ta loyiha bo'yicha 3 939,9 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 15,9 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga, 985 ta yangi ish o'rirlari yaratildi.

